

## O'ZGA TILLI GURUHLARDA RUS TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O'RNI

*Otaxonova Shohsanam*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida rus tili va adabiyoti darslarida qo'llanadigan qiziqarli usul va o'yinlar yoritilgan bo'lib, unda o'qituvchining o'quvchini dars jarayoniga jalb qilishiga yordam beruvchi innovatsion ta'lim samaradorligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy tafakkur, toza va xira, rolli o'yinlar, innovatsiya

**Аннотация:** В данной статье описаны интересные методы и игры, используемые на уроках русского языка и литературы в общеобразовательных школах, а также инновационная образовательная эффективность, которая помогает учителю вовлечь ученика в учебный процесс.

**Ключевые слова:** критическое мышление, чистое и грязное, ролевые игры, инновации.

Ta'limni tashkil etishning bosh omili dars hisoblanadi. Bugungi kunda dars shaxsga yo'naltirilgan dars bo'lishi lozim. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni o'qitish bilan chegaralanmaydi, balki o'quvchini darsga qiziqish ehtiyojini tug'diradi. Dars jarayonida o'qituvchi passiv, o'quvchi esa faol ishtirokchiga aylanadi. Bugungi kunda kim uchundir noan'anaviy sanalgan dars kimlar uchundir an'anaviy dars bo'lishi mumkin. Darslarni noan'anaviy shaklda tashkil etish uchun har bir darsga yangilik olib kirishga harakat qilish lozim. Faollik bo'lmagan joyda shaxsning qaror topishi va rivojlanishi ham bo'lmaydi. O'qituvchi o'quvchini darsga jalb etish uchun o'quv materialini qiziqarli qilib tushuntirishi, hayot bilan bog'lashi, amaliy ahamiyatini ko'rsata bilishi, ilg'or, interfaol usullarni qo'llashi, test, reyting orqali bilim ko'nikmalarini sinashi, ijobiy iqlim yarata bilishi, natijalarni ko'rsata bilishi va namoyish eta olishi kerak.

Bilishning asosini amaliyot tashkil etadi. Amaliyotda qo'llanilmagan bilim hosilsiz daraxt kabidir. Shuning uchun nazariya bilan amaliyot bog'lanmas ekan, hech qanday bilim haqida gap bo'lishi mumkin emas. Maktabda olingan bilimlarni hayotda, amaliyotda qanday qo'llash mumkinligini o'quvchilarning o'zlari bilan bajarib ko'rish lozim. Shundagina o'quvchilarda bilishga nisbatan qiziqish oshib boraveradi, ta'lim samaradorligi esa yuqori bo'ladi. O'qituvchi innovatsion usullardan foydalana bilishi va ularni amalga oshira olishi lozim. Quyidagi usul va o'yinlar maktabda tillarni o'qitilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Rolli o'yinlar** (ролевые игры) – O'qitishning bu usulida o'quvchilar «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Bu ularga o'z amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarini sinab ko'rish, va tekshirish imkonini beradi. Yangi turdagi faoliyatni sinash imkonini ko'rsatishda; o'quvchilarni nazariyasini amaliyotda qo'llab ko'rishga o'rgatishda; o'quvchilar faolligini yanada oshirishda qo'llanadi.

Afzalligi: «real hayot»ning qayta tiklanishi, o'quvchilarning mavzuga chuqurroq jalb qilinishi, o'quvchilarning muammoga boshqacha yondashuvini ko'rish imkonini berishi.

**“Tanqidiy tafakkur”**( критическое мышление) usuli o'qituvchi qo'ygan masala yoki muommoni o'quvchi o'z fikrini bayon qilish, o'z g'alar fikrini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish orqali yechish yoki hal etish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. O'quvchi o'z nuqtai nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan holatlarda, o'quvchiga o'z nuqtai nazari fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat berilishida, o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish jarayonida qo'llanadi.

Afzalligi: O'quvchi o'z fikrini asoslaydi, ta'lim oluvchilarga erkin so'zlash imkonini beradi, barcha fikrlar erkin tahlil qilib chiqiladi.

**“Har kim har kimga o'rgatadi”** (все учат всех) usuli o'quvchilarga o'rgatuvchiga aylanish, ma'lum bilimlarni o'zlashtirgach, o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi uslubidir. Bu uslubning maqsadi o'quvchilarga o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborot maksimumini berish. Ayni paytda o'quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o'quvchi ma'lum vaqt davomida uni iloji boricha ko'proq o'rtoqlariga yetkazadi. O'qituvchilarda axborot olish va berishga qiziqish uyg'otish uchun, axborotni diqqat bilan eshtish va eslab qolish uchun, sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun qo'llanadi.

Afzalligi: o'z fikrini lo'nda bayon etishi, tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi, fanga yoki mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi

**“Toza va xira oyna”**( чистое и грязное) usuli –bu usuldan darsninig xulosalash qismida foydalanish mumkin. Bunda o'quvchiga bir varaq qog'oz beriladi, uni 2 bo'limga ajratib, biriga “toza”, ikkinchisiga ”xira ” deb nom berishi aytiladi. Toza oyna tomoniga dars davomida bilib olgan tushunchalari, xira tomoniga esa tushunishi qiyin bo'lgan, yana qo'shimcha ma'lumot talab qiladigan tushunchalar yoziladi. Bu usulning qo'llanilishi o'qituvchining ham kelgusi darsga yana qo'shimcha ma'lumotlar bilan kelishini va mavzuni yanada soddaroq va tushunarliroq qilib tushuntirib berishini ta'minlaydi. Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion usullarni ko'plab dars o'tilganda sinfda qoloq, o'zlashtirmaydigan o'quvchi qolmaydi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari

ortadi. O'quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlarida, hunar o'rganishlariga imkon yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.-65 b

2. **Sobirova, M.** & Babaxanova, D. A. (2023). Обучение языковым явлениям на основе анализа текста. “Этнокультурный и социолингвистический аспекты в теории и практике преподавания языков в негуманитарных вузах” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Минск, 30 март 2023 й., – В. 299-302. <https://rep.bntu.by/handle/data/130394>

3. **Sobirova, M.** & Shermatova, D. (2021). Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. **Design Engineering**. International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES) СКОПУС 5288-5295 <http://thedesignengineering.com/index.php/DE/issue/view/31>.

4. **Абдулвохидов Э.** Педагогическая публицистика Чингиза Айтматова как особое явление творчества писателя // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor volume 2 | ISSUE 4/2 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) of “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” scientific journal in April 2022.

5. **Абдулвохидов Э.** Художественное выражение преемственности поколений трудах Чингиза Айтматова // “Scholar” scientific journal volume 1, issue 35, december, 2023. Scholar, 1(35), 150–160. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10442301>.

6. **Абдулвохидов Э.** Переплетение художественной и педагогической мысли в произведениях писателей-философов // International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education, Hosted from New York, USA. Jan. 28th 2023, <https://conferencea.org>.

7. **Egamberdiyeva S.** BOLALAR FOLKLORIDA BSHIK QO'SHIQLARI POETIKASI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 61-67. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/4233/4052>

8. **Mamajonovna S. E.** O'ZBEK XALQ OG'ZALI IJODIDA ONALIK FOLKLORI POETIKASI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 67-73.

<https://interonconf.org/index.php/taare/article/view/2654/2375>

**9. Mamajonovna E. S.** O'ZBEK VA TURK ALLALARIDA OTA OBRAZINING QIYOSIY TALQINLARI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 4. – С. 561-564.

<https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1851/1689>

**10. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon O'G'Li** QOZOQ VA O'ZBEK TILIDAGI MODAL SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qozoq-va-o-zbek-tilidagi-modal-so-zlar-chog-ishtirmasi> (дата обращения: 01.02.2024).

**11. Tojiddinovna N. H.** LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF THE PUZZLES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1099-1101. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1922/1484>

**12. Tillayeva R.** O 'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRIHSDA TADQIQOT ISHI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI //O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI. С.439. [https://tsuull.uz/sites/default/files/02\\_06\\_22\\_toplam\\_til\\_va\\_adabiyot\\_ilmiv\\_va\\_amaliy\\_izlanishlar\\_yolidagi\\_0.pdf#page=439](https://tsuull.uz/sites/default/files/02_06_22_toplam_til_va_adabiyot_ilmiv_va_amaliy_izlanishlar_yolidagi_0.pdf#page=439)

**13. Убайдуллаев Ш.Н.** Чет тил дарсларида маданиятлараро мулоқотга ўргатишнинг асосий хусусиятлари. Best Practices in Distance Education in Learning Foreign Languages. International Scientific Conference. –Т., UzSPIC. 2009. – P. 277-279.

**14. Убайдуллаев Ш.Н.** Символические значение цвета в фразеологических единицах на материале английского, немецкого, русского и узбекского языков. International Scientific Journal. Philadelphia, USA. 2019. №12. –P. 42-44. (ISSN:2409-0085)

**15. Убайдуллаев Ш.Н.** Формирование социокультурной компетенции на основе фразеологических единиц. International Scientific Journal. Philadelphia, USA. 2019. –№12. –P. (ISSN:2409-0085)

**16. Убайдуллаев Ш.Н.** Сопоставительное изучение фольклорных дискурсов (на материале немецких и узбекских пословиц). Филологические открытия: Сборник научных статей. –Владивосток, 2021. –С.111-115.

**17. Dehqanova Guljahon Ahmadjonovna.** (2023). NATIONAL -CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON'S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344>

**18. Dehqanova G. A., Polvanova M. F.** NATIONAL-CULTURAL SPECIFICITY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK

LANGUAGES //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 159-164.<https://researchedu.org/index.php/re/article/view/545/544>

19. **Bobajonova Mavjuda**. International Journal of Formal Education. ISSN:2720-6870 . Development of Lingvokultural Inofons Competense on Russian Lessons. <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>

20. Komiljon o'g O. Y. et al. CHARACTERISTICS OF LITERARY TRENDS OF AMERICAN LITERATURE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1202-1208.

<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/download/9347/6053>

21. Пардабоева Д. Р. Методы обучения на уроках русского языка //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 957-961.

22. Пардабоева Д. Р. Модели личностно-ориентированного подхода в обучении русскому языку //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 952-956.

23. Пардабоева Д. Р. СПЕЦИФИКА УЧЕБНОЙ РАБОТЫ НАД ЯЗЫКОМ ПРОИЗВЕДЕНИЙ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 96-101.

24. Олимова Мохидил. СВОЕОБРАЗНЫЕ ЧЕРТЫ ИВАНА АЛЕКСЕЕВИЧА БУНИНА . International journal of advanced research in education, technology and management ISSN:2349-0012. [vol. 2.2, 2- hind.pdf](#)

25. R.T. Tillayeva. M.M.Q. Mo'minova. O'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish metodikasi "Science and Education" Scientific Journal / [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) November 2023 / Volume 4 Issue 11 [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Hj9TC0QAAAAJ&citation\\_for\\_view=Hj9TC0QAAAAJ:u5HHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Hj9TC0QAAAAJ&citation_for_view=Hj9TC0QAAAAJ:u5HHmVD_uO8C)